

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53406-4.01

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

"8" iyul 2003 y.

**MOLIYa
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340600 - "Moliya"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: prof. Vahobov A. V.,
dots. Jamolov X. N.

Taqrizchilar: dots. Xaydarov N.,
dots. Alieva L.

Ushbu dastur iqtisodiy oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tuzilgan bo'lib, moliyaning mohiyati va funktsiyalarini, moliya tizimining asosiy bo'g'inlarini, moliyaviy siyosat va moliya mexanizmi asoslarini, iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida moliyani tashkil etish va boshqarish shakllari hamda usullarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Dasturda shu bilan birga ma'ruza, amaliy (seminar) mashg'ulotlari uchun qator yangi mavzular, jumladan, iqtisodiyot transformatsiyasisharoitida moliyaning mohiyati va funktsiyalari, bankrotlik sharoitida moliyani boshqarishning hozirgi zamon muammolari, moliyaviy xizmat va uning hozirgi zamon vazifalari va hokazolar ham e'tibordan chetda qolmagan. Dasturda mazkur predmetni o'rganish uchun zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati o'zbek, rus va ingliz tillarida keltirilgan, iqtisodiyjurnal va ro'znomalardagi maqolalar manbalari berilgan. Shu bilan birga ro'yxat so'nggida mazkur kursning tegishli mavzulari bo'yicha internet saytlari va kompyuter o'quv dasturlari ro'yxati ham ilova qilingan.

Данная программа составлена для студентов экономических вузов и включает в себе сущность, функции финансов, основные звенья финансовой системы, основы финансовой политики и финансового механизма, формы и методы организации и управления финансами в условиях либерализации экономики. В нем нашли отражение и ряд новых тем лекционных, практических (семинарских) занятий, такие как, сущность и функции финансов в условиях трансформации экономики, современные проблемы управления финансами в условиях банкротства, финансовая служба и её задачи в современных условиях и т.д. В программе приведен список основной и дополнительной литературы на узбекском, русском и на английском языках, источники материалов из экономических журналов и газет. Вместе с тем программе были приложены компьютерные программы, сайты сети интернета по соответствующим темам учебного курса.

The given manual is intended for the students of economic high schools.

The specialists working on Finance system well be guided in questions of the subject Finance.

Market conditions require high qualified experts to provide economic growth, macroeconomic stability in country. In subjects of the given rate the theoretical questions concerning both companies and public finance.

The given rate of lectures stipulated by the program will help the students to master the basic theoretical aspects necessary for the decision of problems connected with finance.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

"Moliya" fanini o'qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi haqida nazariy bilimlar berish, ularda iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlat moliya siyosatining yo'nalishlari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- moliyaning mohiyati, funktsiyalari, tamoyillari va rolini o'rganish;
- moliya tizimi va uning bo'g'inlarini o'rganish;
- moliyani boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini o'rganish;
- mikro va makro darajada moliyaning amal qilishi xususiyatlarini o'rganish;
- iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida moliyadan foydalanish asoslarini yoritish;
- jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida moliyaning rolini yoritish va tahlil qilish.

"Moliya" fani "Iqtisodiy nazariya", "Davlat moliyasi", "Chet mamlakatlar moliyasi" kabi fanlarda olingan nazariy bilimlarga tayanadi.

Shu bilan birga "Moliya" fani qator maxsus fanlar, jumladan, "Davlat byudjeti", "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish", "Nobyudjet fondlar", "Xalqaro moliya munosabatlari", "Korxonalar moliyasi", "Soliq nazariyasi", "Sug'urta asoslari", "Qimmatli qog'ozlar bozori" kabi fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi davlat ta'lim standartiga (DTSga) muvofiq ravishda o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalariga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tegishli bilimga, ko'nikma va maxoratlarga ega bo'lishlari lozim.

Talabalar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda moliyaviy qonunchilik sohasidagi yangiliklardan, ommaviy-axborot vositalaridagi kundalik moliyaviy o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. Mazkur fanning asosiy g'oyalarini to'la va muvaffaqiyatli o'rganish uchun talabalar moliyaviy hisobotlarning asosiy shakllarini, korxonaning moliyaviy ahvolini va to'lov qobiliyatini aniqlash, moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilib, natijalariga baho berish, moliyani boshqarishda yangi usullarni qo'llashni bilishlari lozim.

"Moliya" fanidan olingan bilimlar talabalarni oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng, kundalik faoliyatida uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda zamonaviy moliya tizimiga doir adabiyotlarni o'rganib malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha talabalar tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadi. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan ko'rsatilgan shu savollarni talabalar to'liq o'zlashtirishlari lozimligini bildiradi.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlari o'quv rejasida "Moliya" yo'nalishi bo'yicha mazkur kursga jami 216, shu jumladan 72 - ma'ruza, 72 - amaliy, 72 - mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. Ushbu fan bo'yicha darslarni tashkil etish IV-V-VI o'quv semestrlariga mo'ljallangan. O'quv rejasida mazkur fan bo'yicha mustaqil ta'lim olish, mustaqil ishlash, kurs ishlarini bajarish uchun tegishli o'quv soatlari ajratilgan.

Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasi reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholash asosida aniqlanadi.

Fanni o'qitishning har bir semestrda ikki marotaba joriy (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy baholash

(yozma ish usulida) amalga oshiriladi. Agar fan bir necha semestr davomida o'qitilishi ko'zda tutilsa, oldingi semestrlar nihoyasida yakuniy baholash og'zaki yoki test usulida amalga oshirilishi mumkin, oxirgi semestrda esa yakuniy baholash faqat yozma ish usulida amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Ushbu fanni o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asoslarini quyidagilar isbotlaydi:

- tegishli o'quv maqsadlarini ishlab chiqish texnologiyasining mavjudligi;
- to'la o'zlashtirish texnologiyasining ko'zda tutilishi;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish texnologiyasi mavjudligi;
- test topshiriqlarining invariantligi metodologiyasi va nazariyasidan foydalanilganligi;
- muammoli usul va haqiqatni imitatsion modellashtirishdan foydalanganligi;
- tayanch iboralarga asoslangan yozma ish orqali oraliq nazorat o'tkazish tizimidan foydalanilganligi.

Bu fanni o'qitishda moliyaga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi ("Moliya" AIJ) dasturi, nizomlar va moliyaviy loyihalarni baholashning YuNIDO va "Projestexpert" kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalaridan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ishchi dasturni tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Ushbu fan bo'yicha ishchi dasturi tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Ishchi dasturda fan bo'yicha bakalavriat bosqichining tegishli yo'nalishlariga tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq ajratilgan soatlar hisobga olinishi zarur;
- Ishchi dasturda har bir mavzuga oid huquqiy-me'yoriy xujjatlar hamda tegishli moliyaviy konunchilik asosidagi yangi talab va o'zgarishlar talabalar e'tiborini jalb qiladigan tarzda berilishi kerak;
- Ishchi dasturda mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular va savollar ajratib ko'rsatilishi zarur;
- Ishchi dasturda o'qitishning ilg'or texnologiyalari, dasturiy ta'minot imkoniyatlari hamda talabalar bilimi darajasini nazorat qilishning reyting tizimi talablaridan kelib chiquvchi vazifalar ham yoritilishi lozim.

2. FAN DASTURI

"Moliya" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari

Moliyaning umumiy nazariyasi va transformatsiyalashuvi

Moliyaning mohiyati va funktsiyalari. Moliya – davlat – tovar-pul munosabatlari. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va funktsiyalarining amal qilish xususiyatlari. *Moliya va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish. Moliyaning tamoyillari va roli. Markazlashgan iqtisodiyot sharoitida moliyaning taraqqiyoti.* O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida moliya. Makro va mikro ko'lamda moliyaning amal qilish xususiyatlari.

Moliya haqidagi iqtisodiy ta'limotlar

Moliya haqidagi fanning taraqqiyoti. *Markaziy Osiyo va Rossiyada XVIII-XIX asrlarda moliya nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi.* Sobiq ittifoq davridagi moliyaviy ta'limot. Moliya fanining asosiy nazariyotchilari, ularning nazariy qarashlari. *Moliya fani nazariyasining 1950-90 yillardagi rivojlanishi. Artemov Yu.N., Boldirev B.T., Voznesenskiy E.A., Zverev A.T., Lavrov V.V., Voznesenskiy V.M., Sabanti B.M., Sichev N.T., Shermanov M.K. va boshqalar fundamental tadqiqotlarining moliya nazariyasi va amaliyotining rivojidagi roli va ahamiyati.* Moliya haqidagi G'arb iqtisodiy ta'limoti, uning yirik namoyondalarining nazariy qarashlari, ulardagi ziddiyatlar. Moliyaviy tartibga solishga oid iqtisodiy qarashlar. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida moliya haqidagi iqtisodiy ta'limotning rivojlanishi.

Moliya siyosati va moliya mexanizmi

Moliyaviy siyosatning mazmuni. *Moliyaviy siyosat davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi sifatida.* Moliyaviy siyosatning mazmuni va asosiy tamoyillari. Moliyaviy strategiya va moliyaviy taktika, ularning o'zaro bog'liqligi. Moliyaviy siyosat - ustqurma kategoriyasi ekanligi. *Ustqurmaning jamiyat iqtisodiy bazisi bilan o'zaro bog'liqligi. Moliyaviy siyosatning maqsad va vazifalari.* Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va asosiy yo'nalishlari. Hozirgi sharoitda moliyaviy strategiya va taktikaning dolzarb vazifalari. Moliya mexanizmi, uning mazmuni. *Moliya mexanizmining mamlakat xo'jalik mexanizmida tutgan o'rni, roli va ahamiyati.* Moliya mexanizmining tarkibiy qismlari: moliyaviy munosabatlar tizimi, pul fondlari, moliyaviy apparat. Moliya mexanizmining soha va bo'g'inlari. Moliyaviy munosabatlarni tashkil etish usullari, turlari. Moliya mexanizmining elementlari: pul mablag'lari fondlari, to'lovlar va soliqlar. To'lov va soliqlarni miqdor jihatdan aniqlash usullari va boshqalar. *Bozor iqtisodiyoti sharoitida*

moliya mexanizmining iqtisodiyotga ta'siri. Davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirishda moliya mexanizmining roli va ahamiyati.

Moliya tizimi

Moliya tizimi xaqida tushuncha. Moliya tizimining tuzilish tamoyillari. *Moliya tizimining soha va bo'g'inlari, ularning o'zaro bog'liqligi.* Mikrodarajadagi moliyaviy munosabatlar. Korxonalar va tashkilotlar moliyasi - mamlakat moliya tizimining asosi. Turli tashkiliy-huquqiy shakllardagi korxonalarining moliyaviy xususiyatlari. Makrodarajadagi moliya. *Davlat moliyasining mohiyati va bo'g'inlari. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Davlat byudjetining moliya tizimidagi o'rni va roli.* Davlatning byudjetdan tashqari maxsus maqsadli pul fondlari, ular faoliyatining hozirgi zamon muammolari. Davlat kreditining mohiyati, shakllari va funktsiyalari. Sug'urtalash zaruriyati, mohiyati, turlari va funktsiyalari. Fond bozori – moliya tizimining tarkibiy qismi sifatida.

Byudjet tizimi

Davlat byudjeti - davlat moliyasining markaziy bo'g'ini sifatida. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va mazmuni, uning davlat mohiyati va funktsiyalari bilan bog'liqligi. Davlat byudjetining funktsiyalari. "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimining yangi modeli shakllanishi. Byudjet tizimining bo'g'inlari. Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar. Byudjet tizimining amal qilish tamoyillari va huquqiy asoslari. Turli darajadagi byudjetlar daromadlari. Respublika byudjetining daromadlar tizimi. Mahalliy byudjetlar daromadlari tizimi. *Byudjet - iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish quroli sifatida.* Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda byudjetning roli. Byudjetning solikli va soliqsiz daromadlari, ularning tarkibi va nisbatlari. *Soliqlarning mazmuni, ularning guruhlanishi. Davlat va mahalliy soliqlar. Tartibga soluvchi va birlashtirilgan soliqlar. To'g'ri va egri soliqlar.* Soliqlar va daromadlarni byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash asoslari. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi. Asosiy solikli to'lovlarni hisoblash va to'lash usullari. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining tarkibi va tuzilishi, uning tahlili. Davlat byudjeti xarajatlarining mazmuni, ularning asosiy yo'nalishlari va tarkibi. Respublika byudjetining xarajatlari tizimi. Mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimi *Byudjetning ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari, ularning tarkibi. Byudjetning xalq xo'jaligini va markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari, ularning bozor sharoitidagi ahamiyati. Byudjetning aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari, ularning tarkibi. Byudjetning davlat boshqaruviga, mudofaaga, Vazirlar Mahkamasi zahira fondini tuzishga va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan xarajatlari.* O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti

xarajatlarining tarkibi va tuzilishi tahlili. Byudjetdan moliyalashtirish tushunchasi, uning usullari. Byudjetdan to'lovlarning turlari: byudjet ajratmalari, subsidiya, subventsia, dotatsiya.

Davlatning byudjetdan tashqari maqsadli pul fondlari

Davlatning byudjetdan tashqari maqsadli pul fondlari - umumdavlat moliyasining muhim bo'g'ini. Bozor munosabatlari sharoitida byudjetdan tashqari maqsadli pul fondlardan foydalanishga bo'lgan haqiqiy ehtiyoj va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini belgilab beruvchi asosiy omillar. Davlatning byudjetdan tashqari maqsadli pul fondlarning guruhlanishi: maqsadiga ko'ra - iqtisodiy va ijtimoiy; boshqarish darajasiga ko'ra - davlat va regional (mintaqaviy). Davlatning byudjetdan tashqari maqsadli pul fondlar mablag'larining shakllanish manbalari va xarajat qilish yo'nalishlari. Davlatning byudjetdan tashqari maqsadli pul fondlarning moliyaviy bozordagi ishtiroki. Davlatning byudjetdan tashqari maqsadli pul fondlarini boshqarish tuzilmalarining huquq va majburiyatlari. *Davlat ijtimoiy sug'urta fondi, uning mazmuni va tayinlanishi. Fondning shakllanish usullari. Davlat ijtimoiy sug'urta fondiga tushumlarning manbalari, bozor sharoitida manbalar o'rtasidagi nisbatlarning o'zgarishi. Davlat ijtimoiy sug'urta fondi mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari. Pensiya fondi, uning mazmuni va vazifalari. Pensiya fondining shakllanish manbalari va xarajat yo'nalishlari. Pensiya fondining davlat byudjeti bilan o'zaro munosabatlari. Pensiya fondini boshqarish organlari. Pensiya fondi byudjetining loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash, uni ijro etish. Davlat bandlik fondi va boshqa nobyudjet fondlar, ularning mazmuni va tayinlanishi, mablag'larning shakllanish manbalari va xarajatlari yo'nalishlar.*

Davlat krediti

Davlat kreditining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Davlat kreditining iqtisodiy va moliyaviy kategoriya sifatidagi mazmuni. *Davlat kreditining boshqa moliyaviy kategoriyalar bilan bog'liqligi.* Davlat kreditining bank krediti bilan o'xshashligi va farqi. Davlat kreditining ob'ektiv zarurligi va maqsadga muvofiqligi. Davlat kredit faoliyati turlari. Davlat-qarzdor, davlat-kreditor, davlat-kafil. Ichki va tashqi davlat krediti tushunchasi. Hozirgi davrda xalqaro kreditning rivojlanishi. Davlat qarzining paydo bo'lishi. Kapital va joriy davlat qarzi. Davlat krediti yo'li bilan jalb qilingan mablag'larning ishlatilish yo'nalishlari va davlat kreditini qoplash manbalari. Davlat kreditining shakllari: davlat zayomlari, aholining omonatga qo'ygan jamg'armalarining bir qismini davlat zayomlariga jalb qilish, umumdavlat ssuda fondidan qarz olish, xazina ssudalari, kafolatlangan zayomlar. Davlat zayomlarining guruhlanishi. Ichki va tashqi zayomlar. Ichki zayomlar klassifikatsiyasi: emissiya qilish huquqiga ko'ra-davlat va

mahalliy, daromadlar to'lash shakliga ko'ra-foizli, yutuqli, foizsiz maqsadli; qoplash muddatiga ko'ra-qisqa, o'rta, uzoq muddatli; joylashtirish usuliga ko'ra-ixtiyoriy, obuna bo'lish orqali, majburiy; rasmiylashtirishga ko'ra-obligatsiyali, obligatsiyasiz. Obligatsiyali zayomlar, obligatsiya turlari. Davlat zayomlari obligatsiyalarining kurs va foizlari. Obligatsiyalarning daromadliligi. Davlat qimmatbaho qog'ozlar bozorining holati. Xalqaro davlat krediti. *Xalqaro davlat krediti bo'yicha kreditorlar va qarz oluvchilar (qarzdorlar)*. Xalqaro davlat kreditini berish va qoplash manbalari. Xalqaro davlat kredit munosabatlarining sub'ektlari. Xalqaro davlat kreditini berish shartlari. O'zbekiston Respublikasining xalqaro davlat krediti munosabatlariga kirishi, uning mamlakat milliy iqtisodiyoti uchun ahamiyati. Davlat qarzini boshqarish. Davlat qarzi bo'yicha foizlarni to'lash. *Konsolidatsiya va konversiya, ularni unifikatsiya qilish. Zayomni qaytarish muddatini kechiktirish*. Davlat qarzini bekor qilish.

Mahalliy moliya

Mahalliy moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. *Mintaqaviy siyosatni olib borishda mahalliy moliyaning roli*. Mahalliy moliyaning tuzilishi. Mahalliy byudjetlar. Mahalliy hukumat organlariga tegishli korxonalar va mulklarni ekspluatatsiya qilishdan kelgan daromadlar. Mamlakat milliy daromadining qayta taqsimlanishida mahalliy byudjetning roli. Mahalliy byudjetlarning daromadlari, ularning tarkibi va tuzilishi. Mahalliy byudjetlarning solikli va soliqsiz daromad hamda tushumlari, ularning nisbati. Mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari va qayta taqsimlash tartibida tushadigan daromadlari. Mahalliy soliqlar, ularning mahalliy byudjetlar daromad bazasini ta'minlashdagi roli va ahamiyati. Mahalliy soliqlarning asosiy turlari. Iqtisodiyotga xarajatlar. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari. Aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari va boshqa ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlar. Mahalliy boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari. Mahalliy byudjetlarning yuqori turuvchi byudjetlar hamda respublika byudjeti bilan moliyaviy munosabatlari. Byudjet subsidiyalari. Subvensiyalarning mahalliy byudjetlar uchun ahamiyati. *Mahalliy hukumat organlarining mustaqilligini oshirish borasidagi davlat siyosati. Ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari. Mahalliy organlar zayomlarining mohiyati va ahamiyati*. Mahalliy zayomlar-mahalliy hukumat organlari kapital qo'yilmalarini moliyalashtirishning usuli sifatida. Mahalliy hukumat organlarining maxsus fondlari, bozor sharoitida ularning rivojlanishi. Maxsus fondlarning daromad va xarajatlari.

Moliyani boshqarish

Moliyani boshqarishning mohiyati, ob'ektlari va sub'ektlari. Moliyani boshqarishning tashkiliy tamoyillari. Moliyani boshqarish elementlari: istiqbolni belgilash, axborot; moliyaviy munosabatlarni operativ boshqarish, moliyaviy tartibga solish, nazorat. *Moliyani umumiy va operativ boshqarish organlari.* Moliya Vazirligi, uning vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari. Moliya Vazirligining moliya-byudjet boshqaruvini tashkil etishdagi roli. Davlat Soliq qo'mitasi, uning joylardagi organlarining davlat byudjetiga to'lovlar va soliqlarning tushishini boshqarish va nazorat qilishdagi vazifalari, huquq va majburiyatlari. *Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida soliq idoralarning roli va ahamiyatining oshishi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasini boshqarishdagi korxonalar va tashkilotlarning moliya xizmatlari.* Moliyani boshqarishda ishtirok etuvchi boshqaruvchi tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish. *Rivojlangan xorijiy davlatlarda moliyaviy boshqaruv.* O'zbekiston Respublikasida moliyaviy boshqaruv.

Moliyaviy nazorat

Moliyaviy nazoratning mohiyati va funksiyalari. Davlat moliya nazorati. Nodavlat moliya nazorati. Moliyaviy nazoratning tamoyillari va tizimi. Davlat tomonidan moliya nazoratini ta'minlashning asosiy tamoyillari. *Moliyaviy nazorat bo'yicha xalqaro tajriba.* Nazorat shakllari. Nazorat ob'ektlari, sub'ektlari. Nazorat turlari va usullari. O'zbekiston Respublikasida davlat organlarining moliyaviy ta'minlashdagi funktsiya va vazifalari. Firma ichidagi moliyaviy nazorat. *Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat. Audit nazorati.*

Soliq va soliqqa tortish

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi. Soliq. Yig'im. Bojxona boji. *Soliq va soliqqa tortishning huquqiy asoslari.* Soliqlarning funksiyalari. Umumdavlat soliqlari. Mahalliy soliqlar. Soliq to'lovchilar. Soliq organlari, ularning funksiyalari va mas'uliyatlari. *Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari.* Soliq ob'ekti va turlari. Soliq stavkasi. Soliq bazasi. Soliq davri. Soliq krediti. Soliq nazorati. Soliq tekshiruvlarini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Korxonalar daromad va foydasini soliqqa tortish. Korxonalarda soliq hisobi va menejmenti. Soliqlarni mukammal boshqarish strategiyasi. Soliq stavkalari. *Alohida olingan daromadlarni soliqqa tortish.* Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish. Aktsizlar. Qo'shilgan qiymat solig'i. Korxonalar mol-mulkiga soliqlar. Soliqlarni optimallashtirish masalalari. Soliq deklaratsiyasi. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarga majburiy to'lovlar.

Sug'urta

Sug'urta asoslari. Iqtisodiyotda sug'urtadan foydalanish zaruriyati. Sug'urtaning funksiyalari: tavakkallik, ogohlantiruvchi, jamg'aruvchi va nazorat. Sug'urta turlari. Sug'urta tarmoqlari: mulkiy, shaxsiy, ijtimoiy, javobgarlik sug'urtasi, tadbirkorlik, tavakkali sug'urtasi. Sug'urta shakllari: ixtiyoriy, majburiy. *Sug'urta ishidagi asosiy tushunchalar.* Sug'urtalash tartibi va shartlari. Ijtimoiy sug'urtaning xususiyatlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta munosabatlarining rivojlanishi. *O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining shakllanishi va kengayishi. Bozor munosabatlari sharoitida mulkiy sug'urtaning mazmuni, mohiyati va ahamiyati.* Sug'urta ob'ektlari. Mulkiy sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy shakllari. *Majburiy sug'urtaning turlari.* Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolar mulkining majburiy sug'urtasi. *Ixtiyoriy sug'urta.* Korxonalar va fuqarolarning ixtiyoriy sug'urtasi turlari. *O'zbekistonda mulkiy sug'urta bo'yicha sug'urta ishining holati.* Shaxsiy sug'urtaning asosiy turlari. Javobgarlik sug'urtasining turlari. Tadbirkorlik tavakkali sug'urtasi, uning mazmuni va bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati. Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati. Ijtimoiy sug'urtani tashkil qilish printsiplari, vazifalari. Davlatning ijtimoiy sohadagi siyosati. *Ijtimoiy sug'urta vositasida jamiyat tomonidan hal qilinadigan vazifalar. Ijtimoiy sug'urtaning asosiy vazifalari.* Ijtimoiy sug'urta fondining shakllanish manbalari. Ijtimoiy sug'urta mablag'laridan foydalanish shakllari. To'lovlar va xizmatlar klassifikatsiyasi. *Insonning ijtimoiy mexnatdagi ishtiroki va mexnatning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'lanadigan to'lovlar va imtiyozlar. Funktsional belgilanishiga ko'ra to'lov va imtiyozlar.* Pensiyalar, ularning belgilanishi. Pensiyalarning turlari. Ijtimoiy sug'urtaning bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan jamiyatda ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi ahamiyati.

Davlat buyurtmalari, zahiralari va ehtiyojlarini moliyalashtirish

Davlat va mahalliy davlat organlari buyurtmalari. Davlat shartnomalari. Yopiq savdolar. *Davlat mudofaa buyurtmasi.* Davlat buyurtmasi. Davlat buyurtmachisining funksiyalari. Davlatning oltin va kumush zahiralarni sotib olishi. O'zbekiston Respublikasining oltin zahirasi. Davlat moddiy zahiralari. *Kamaymaydigan moddiy zahiralalar.* Moddiy zahiralarni majburiy sug'urtalash. Umumdavlat ehtiyojlari. Respublika fondi. Hududiy fondlar.

Hukumatning qonunchilik-ijroiya institutlari va ularning moliya sohasidagi funksiyalari

Byudjet ma'muriyatchiligi. Moliyaviy nazoratning davlat va mahalliy organlari. Byudjet ma'muriyatchiligining sub'ektlari, ularning huquqlari va majburiyatlari. Byudjet ma'muriyatchiligi asosida respublika byudjeti sub'ektlarining faoliyati. Byudjet ma'muriyatchiligi asosida mahalliy byudjetlari sub'ektlarining faoliyati. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari va mas'uliyatlari.

Mahalliy moliya organlarining vazifalari, huquqlari, mas'uliyatlari. Davlat xazinachilik faoliyatining zaruriyati, funktsiyalari, byudjet vakolatlari, mas'uliyatlari va muammolari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyati, funktsiyalari, mas'uliyatlari va uning bugungi muammolari. Soliq ma'muriyatchiligi. Soliq nazoratining davlat va mahalliy organlari. Soliq ma'muriyatchiligining sub'ektlari, ularning huquq va majburiyatlari. *Davlat Soliq qo'mitasi va uning joylardagi soliq organlarining funktsiyalari, huquq va mas'uliyatlari.* Soliqqa doir qonunchilikni buzishga qarshi kurash xizmatining funktsiyalari, vakolatlari va mas'uliyatlari. *Davlat Bojxona qo'mitasi va uning joylardagi bojxona organlarining funktsiyalari, huquq va mas'uliyatlari.* Davlat mulkini boshqarish qo'mitasining funktsiyalari va davlat moliyasini boshqarish.

Iqtisodiyotning davlat va tadbirkorlik sektorlari moliyasining xususiyatlari

Iqtisodiyot sektorlarida moliyaviy boshqaruv ob'ektlari. Iqtisodiyotning davlat va mahalliy boshqarish sohalari moliyasining xususiyatlari. *Davlat hokimiyatining boshqaruv darajasiga ko'ra moliyaviy munosabatlarni tashkil etish va boshqarish xususiyatlari.* Iqtisodiyotning davlat sektoridagi institutsional o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari va ularning moliyani tashkil etish va boshqarish jarayoniga ta'siri. Davlat harajatlarini tejash dasturining asosiy yo'nalishlari. *Byudjet tizimi bo'g'inlarida huquq va majburiyatlar taqsimlanishi.* Iqtisodiyotning tadbirkorlik sektori moliyasining xususiyatlari va asoslari. Tadbirkorlik faoliyatining umumiy tavsifi, uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturining vazifalari. *Mablag'lar cheklanganligi sharoitida tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari.*

Ijtimoiy sohalar moliyasi

Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati va hozirgi zamon xususiyatlari. Davlat ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining o'zaro mutanosibligi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning "o'zbek modeli" va unda ijtimoiy himoya tizimi. Ijtimoiy sohani moliyalashtirishning barqarorligini ta'minlash. *Ijtimoiy soha taraqqiyoti muammolari va ularning echimlari.* Ijtimoiy sohalar taraqqiyotini davlat tomonidan tartibga solish usullari. Ijtimoiy hamkorlik. Korxonalar ijtimoiy jamg'armalari. Ijtimoiy xizmatlar uchun moliyaviy xarajat me'yorlari. Ijtimoiy-madaniy sohani byudjetdan moliyalashtirish. Ta'lim tizimi islohotlari va uning moliyaviy muammolari. Sog'liqni saqlash tizimi islohoti va uning moliyaviy ta'minoti. *Uy-joy va kommunal xo'jaligi xarajatlarini moliyalashtirish.*

Turli tashkiliy-huquqiy shakllardagi korxonalarining moliyaviy xususiyatlari

Mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirish jarayonining korxonalar moliyaviy xususiyatlariga ta'siri. Korxonalar moliyasi – O'zbekiston Respublikasi moliya tizimining asosi. Moddiy ishlab chiqarish korxonalari moliyasining

mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari. *Xo'jalik ittifoqlari moliyasining xususiyatlari. Xo'jalik uyushmalari moliyasining xususiyatlari.* Hissadorlik jamiyatlari moliyasining xususiyatlari. Davlat korxonalari moliyasining xususiyatlari. *Nomoddiy ishlab chiqarish muassasalari va tashkilotlari moliyasining o'ziga xos xususiyatlari va belgilari. Notijorat tashkilotlari moliyasining xususiyatlari.* Kichik korxonalar moliyasining xususiyatlari. Moliya-sanoat guruhlarini faoliyatining moliyaviy asoslari va xususiyatlari.

Korxonalar moliyaviy resurslari

Korxonalar moliyaviy resurslari va ularning tashkil topishi manbalari. Korxonalar moliyaviy resurslarining ishlatilish yo'nalishlari. Korxonalar moliyaviy resurslari manbalarining tarkibi va dinamikasi tahlili. Foydani shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi tahlili. Korxonalar moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi tahlili. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyaviy resurslarini tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari. Korxonalar moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish muammolari.

Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar va tashkilotlar moliyasi

Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda tijorat asosida ish yurituvchi korxonalarining tutgan o'rni. Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar va tashkilotlar moliyasining mazmuni va mohiyati. *Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar va tashkilotlar moliyasining tashkiliy tamoyillari.* Korxonalar moliyasini tashkil etishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Korxonalar moliyaviy resurslarining mazmuni va tarkibi. *Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida moliyaviy resurslar tashkil topish manbalari mukammal tarkibini ta'minlash va boshqarish muammolari.* Korxonalarining maxsulot ishlab chiqarish harajatlari va mahsulot sotishdan tushgan tushum. Korxonaning o'z kapitali. Korxonalar foydasi va rentabelligi. Foydani taqsimlash asoslari, tamoyillari. Foydani taqsimlashda bozor iqtisodiyotida korxonalar mustaqilligi va erkinligining oshishi. Foydani taqsimlanish tartibi. *Bozor sharoitida daromaddan foydalanish yo'llari.* Korxonalarining byudjet bilan o'zaro munosabatlari. Korxonalar tomonidan to'lanadigan soliqlar va to'lovlar, ularni hisoblash va to'lash tartibi, stavkalari, imtiyoz va sanksiyalari (jazo choralari). Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish. Korxonalar moliyaviy rejasi, uning tarkibi va tuzilishi. Korxonalar daromad va xarajatlari balansi. Bozor sharoitida moliyaviy rejalashtirish. Korxonalar biznes-rejasi, uning ahamiyati. Korxonalar moliyaviy ishlarini tashkil etish.

Notijorat faoliyat olib boruvchi muassasalar va tashkilotlar moliyasi

Notijorat faoliyat olib boruvchi muassasalar va tashkilotlar. Notijorat sektorining moliyaviy resurslari. Notijorat sektorini moliyalashtirish manbalari: byudjet mablag'lari;

korxonalar, jamoat tashkilotlari, fuqarolar mablag'lari; pullik xizmatlardan tushumlar; mulkni ijaraga berishdan tushumlar; ixtiyoriy badallar va xayr-ehsonlar. *Moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish usullari*. Notijorat sektori moliya mexanizmini xo'jalik yuritishning bozor sharoitlari asosida qayta qurish. Xodimlarga haq to'lash, byudjetdan moliyalashtirish tizimining o'zgarishi va takomillashi. *Iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmini joriy qilish va rivojlantirish*. Tibbiyot sug'urtasini shakllantirish, sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishda tibbiyot sug'urtasining roli. Byudjet muassasalarida moliyaviy rejalashtirish, ularning moliyaviy rejasi. Xarajatlar smetasi, uning asosiy moddalari. *Bozor sharoitida moliyaviy rejalashtirishni takomillashtirish*. Daromad va xarajatlar smetasi, uning xarajatlar smetasidan farqlari. Smeta ko'rsatkichlarini rejalashtirish.

Hissadorlik jamiyatlari moliyasining xususiyatlari

Hissadorlik jamiyatlarining tashkil etilishida moliyaning roli. Hissadorlik jamiyatlarining shakllari. Hissadorlik jamiyatlarining faoliyat yuritishi. Hissadorlik jamiyatlarining moliyasi. Kapital. Foyda. Hissadorlik jamiyatlarining fondlari. Aktsiya bo'yicha to'lovlar. Sof aktivlar. *Hissadorlik jamiyatining nizom kapitalining o'zgarishi*. Hissadorlik jamiyatining moliyaviy ahvoli va foydaning taqsimlanishi. Aktsiya va uning turlari. Dividendlarning aniqlanish usullari. Obligatsiyalar va ular bo'yicha foizlar. Boshqa qimmatbaho qog'ozlar. *Hissadorlik jamiyatlarining aksionerlar reestri*. Nominal aktsiya ushlovchilar. Hissadorlik jamiyatlarini qayta tashkil etish va tugatishning moliyaviy masalalari. Hissadorlik jamiyatlarining qo'shilishi. Hissadorlik jamiyatlarining bo'linishi.

Moliya-sanoat guruhleri

Moliya-sanoat guruhlarining mohiyati, zarurligi va iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlaridagi o'rni. O'zbekiston Respublikasidamoliya-sanoat guruhlarini tashkil etishning iqtisodiy mohiyati. Moliya-sanoat guruhlarining moliyaviy ta'minoti. *Moliya-sanoat guruhleri – kapital yiriklashuvining ob'ektiv jarayoni natijasi sifatida*. Moliya-sanoat guruhlarining turlari. Moliya-sanoat guruhlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ular rivojlanishining istiqbollari. *Moliya-sanoat guruhleri faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy yo'nalishlari*.

Korxonalarni moliyalashtirish va kreditlash

Korxonalarni moliyalashtirish shakllari va usullari. Korxonalarni moliyalashtirish va kreditlash jarayonida o'z-o'zini qoplash va o'z-o'zini moliyalashtirish usullarining xususiyatlari. *Moliyaviy o'sish omillari*. Samarali o'sishning tashqi va ichki turlari. Moliyaviy risklarning mohiyati va turkumlanishi. *Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida*

korxonalarni moliyalashtirish va kreditlash jarayonidagi hozirgi zamon muammolari tavsifi. Korxonalarni moliyalashtirishni tashkil etish. Korxonalarni kreditlash. Korxonalarni kreditlash tamoyillari. Bank kreditining zarurligi, mohiyati va muammolari. *Kredit shartnomasining mazmuni. Kreditning ta'minlanganligi.* Muammoli kreditlarni boshqarish va kreditdan foydalanishda to'lov intizomiga rioya qilishni ta'minlash yuzasidan tadbirlar. *Veksel muomalasining afzalliklari va imkoniyatlari. Oddiy va o'tkaziladigan veksel.* Faktoring, lizing va trast operatsiyalari.

Korxonada pul mablag'lari oqimlarini byudjetlashtirish

Korxonada pul mablag'lari byudjetining mohiyati va hozirgi zamon moliyaviy menedjment tizimidagi o'rni. Korxonaning pul oqimlarini boshqarish zaruriyati, omillari va usullari. Korxonada pul mablag'lari oqimini byudjetlashtirish usullari va uslubiyoti. Operativ moliyaviy rejalashtirishni tashkil etish.

Korxonalarning oborotdan tashqari aktivlari

Moliyaviy hisobot shakllari va ularning tahlili. Korxonalarning oborotdan tashqari aktivlarining mohiyati va ularni baholash. Oborotdan tashqari aktivlarning tarkibi. Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish. Asosiy fondlarning faol va sust turlari. Asosiy fondlarning amortizatsiyasi. *Nomoddiy aktivlar va ularning tarkibi.* Oborotdan tashqari aktivlarning bozor yoki baholovchi qiymati. Oborotdan tashqari aktivlarning tugatilish qiymati. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari. Jamg'armalar va investitsiyalar. Jamg'arish va investitsiyalash zaruriyati, mohiyati. Sof va yalpi investitsiyalar. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari. Innovatsion maqsadlardagi investitsiyalar. *Xususiy va davlat investitsiyalari.* Investitsiya jarayonining sub'ektlari, ob'ektlari va iste'molchilari. Investitsion faoliyatni moliyaviy ta'minlash. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish. Kapital qurilish sohasida investitsiyalarning o'zlashtirilishi. Moliyaviy qo'yilmalar va portfel investitsiyalar. Kapital bozorining amal qilishi. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar. Korxonaning portfel strategiyasi. Pay asosidagi investitsion fondlar. Emissiya jarayonining mohiyati, bosqichlari, qatnashchilari va tartibga solinishi. Xorijiy investitsiyalar. To'g'ri xorijiy investitsiyalar. Xorijiy investorlarning vakolatlari va investitsion faoliyati. Qulay investitsion muhit. *Ustivor investitsion loyiha va uning imtiyoz shartlari.* Erkin iqtisodiy zonalar. Xalqaro moliyaviy, soliq, bojxona, hisob-kitob kelishuvlari va bitimlari.

Korxonalar aylanma mablag'larini moliyalashtirish

Aylanma mablag'larning mohiyati, tarkibi va baholanishi. Tovar moddiy boyliklar zahiralarni baholashning joriy baholardagi (LIFO) usulining, haqiqiy sotib olish baholaridagi (FIFO) usulining mohiyati. *Aylanma mablag'larning me'yorlashtirilishi.*

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari. Naqd pulsiz hisob-kitoblar. *Naqd pulli hisob-kitoblar*. Qarzlarni boshqarish. Debitorlik qarzlarning mohiyati va ularni boshqarish. Kreditorlik qarzlarning yuzaga kelishi va ularni boshqarish. *Tannarx va xarajatlar*.

Tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijalari

Moliyaviy natijalarning shakllanishi. Yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot sotishdan tashqari olingan daromadlar. Moliyalashtirishning o'z manbalari. *Nizom kapitali*. Zahira fondi. Iste'mol va jamg'arma fondlari. *Moliyaviy bitimlar*. Moliyaviy rejalashtirish. Strategik, joriy, operativ moliyaviy rejalar. Korxonalar moliyaviy holati. Korxonalar moliyaviy holatining asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblash.

Korxonalar moliyaviy nochorligi (bankrotligi)

Bankrotlikning davlat tomonidan tartibga solinishi. Bankrotlikni boshqarishda amal qiluvchi huquqiy me'yorlar. Bankrotlik shart-sharoitlari. *Qarzdor tomonidan talab qilinadigan bankrotlik*. *Kreditor tomonidan talab qilinadigan bankrotlik*. Bankrotlik jarayoni. Vaqtinchalik boshqaruvchi. Tashqi boshqaruvchi. Konkurs ishlab chiqarish. Bankrotlik mezonlari.

Moliyaviy tahlil va korxonaning moliyaviy strategiyasi

Korxonalarda moliyaviy tahlil. Moliyaviy tahlilni amalga oshirish usullari. Korxonalar moliyaviy holatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Aktivlar, passivlar, korxonaning zahira va xarajatlari tarkibi. Moliyaviy barqarorlikning tahlili. Korxonalar moliyaviy holatini belgilovchi holatning tahlili. *Korxonalar moliyaviy faoliyati natijalarining koeffitsienti*. *Korxonaning buxgalteriya balansi*. Moliyaviy holatning umumiy tahlili. Korxonalar moliyaviy faoliyatining tahlili bo'yicha umumiy xulosa. Korxonalar moliyaviy strategiyasi. Moliyaviy strategiyaning maqsadlari.

Uy xo'jaliklari moliyasi

Uy xo'jaligining mohiyati va jamiyat hayotida tutgan o'rni. Uy xo'jaliklari moliyasi. Oila byudjeti. Uy xo'jaliklarining birlamchi daromadlari. Uy xo'jaligi egalik qiluvchi daromad. Transfertlar. *Uy xo'jaliklarining haqiqatdagi iste'moli*. Oila byudjeti holatini baholashda aholi daromadlari va xarajatlari balansining ahamiyati. Oila byudjetining daromadlari tarkibi. Oila byudjetining xarajatlari va jamg'armalari tarkibi. Mehnatga to'langan haq – oila byudjetining asosi sifatida. Mehnatga haq to'lashning, pensiya,

